O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 14-05-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

206171 - SONLI

Obyekt nomi: “Toshkent shahar, Sergeli tumani, yangi Sergeli MFY, Sergeli 8-mavzesida Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish markazi hududida “O’zbekistonda o’qituvchilarni malakasini oshirish markazi tashkil etish”.	
Buyurtmachi:	“KOICA” Koreya xalqaro hamkorlik agentligi.
Bosh loyihachi:	"URBAN ARCHITEKTURE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	007353

1. Loyihalash uchun asos.

Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi, Sergeli tumani qurilish bo’limining 23.06.2022-yildagi 1726283-59000-sonli Ruxsatnomasi.

Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasining 08.07.2022-yildagi Mavjud “Kasb-hunarga o’qitish markazi” hududning yuridik hujjatga ega bo’lgan qismida “Malaka oshirish” binosini qurish bo’yicha 1726-1726283-46098-sonli Arxitektura va rejalashtirish topshirig’i.

Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 01.12.2022-yildagi 60214-sonli Xulosasi.

O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 22.02.2024-yildagi obyektning nomlanishi to’g’risidagi 02-07/03-/284-sonli xati.

QMQGA va ShKLITI “O’ZGASHLITI” Toshkent shahar va viloyat filialining 2022-yildagu 28/6-15201-sonli qurilish maydonining muhandislik-geologiya sharoitlari to’g’risida xulosasi.

“KOICA” Koreya xalqaro hamkorlik agentligi tomonidan 2022-yil 14-sentyabrda tasdiqlangan loyihalash uchun topshiriq.

O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi Davlat ekologiya ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining 2023-yil 8-sentyabrdagi 01-01/04-1814-son xulosasi.

“KOICA” Koreya xalqaro hamkorlik agentligi va “Urban Architekture” MChJ o’rtasida 2022-yil 7-aprelda loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun tuzilgan KOICA-P-UZB-2022-1-sonli shartnoma.

“Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJning 2022-yil 8-sentyabrdagi 270/4-2428-sonli Texnik shartlari.

“Hududiy elektr tarmoqlari”ning 2022-yil 12-sentyabrdagi 01/1257-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko’ra «Ishchi loyiha» bo’yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- umumiy tushuntirish xati (UTX);
- bosh reja chizmalari;
- arxitektura loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- konstruktiv loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- elektr ta’minoti tizimining loyiha yechimlari bo’yicha chizmalar;
- yong’indan xabarlash tizimlari loyihasi bo’yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlari tizimlarining loyihaviy yechimlari bo’yicha chizmalar;
- issiqlik va shamollatish tizimlari loyiha yechimlari bo’yicha chizmalar;
- vedio ko’zatuv tarmoq tizimlari loyiha yechimlari bo’yicha chizmalar;
- qurilish xarajatlarining umumiy smeta va hisob-kitoblari;
- obyektning energetik pasporti va issiqliktexnikasi hisob-kitobi;
- buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan narxlar kelishuv bayonnomasi;
- “KOICA” Koreya xalqaro hamkorlik agentligining 13.05.2024-yldagi K-24-70-sonli javob xati.
- “Urban Architekture” MChJning 07.05.2024-yldagi 11-UA-sonli javob xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Qurilish maydonining oziga xos xususiyatlari

- Qurilish maydonining zilzilabardoshligi-8 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni-50 kg/m2.
- Standart shamol bosimi-38 kg/m2.
- Cho’kuvchanlik bo’yicha tuproq sharoitlari turi - I.
- Mavsumiy tuproqni muzlatish chuqurligi - 0,7 m.

Bosh reja (loyihaning umumiy tushuntirish xatiga asosan)**.**

Toshkent shahar, Sergeli tumani, yangi Sergeli MFY, Sergeli 8-mavzesida Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish va malaka oshirish binosini qurish qurilishi Bosh rejasi va muhandislik tarmoqlari «O’ZGASHKLITI» DUK tomonidan amalga oshirilgan 1:500 masshtabdagi topografik tasvirda amaldagi normativ hujjatlar va talablarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bosh reja joylashuvi buyurtmachi tashkilot bilan kelishilgan holda loyihalangan va tarkibi quyidagicha:

- Fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish va malaka oshirish binosi;
- Transformator nimstansiyasi (TP);
- Metal to’siqlar darvozalari bilan;
- Obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish.

Loyiha “Nogironlar va harakatlanish imkoniyati cheklangan boshqa tashrif buyuruvchilar uchun jamoat binolari va inshootlaridan foydalanish imkoniyatiga qo’yiladigan talablar” ga muvofiq ishlab chiqilgan va ko’p funktsional maydonlar va hududlarni, shuningdek kirish joylariga qulay kirish yo’llarini taminlaydi, nogironlar aravachalari uchun nishablik asosida kirish yo’laklari muljallaygan.

Arxitektura va konstruktiv yechimlari.

Fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish va malaka oshirish binosi.

Bino 2 qavatli Г-shaklida bo’lib, 1-qavat balandligi 3,6 m va 2-qavat balandligi 3,3 m qilib loyihalangan, o’qlar bo’yicha gabarit o’lchamlari A-I/1-5o‘qlari bo’yicha 40,2x22,3 metrni tashkil etadi.

Loyihada zal, ma’ruza xonalari, seminarlar uchun xonalar, dahliz, o’quv xonalari, oshxona, veranda, instruktorlar xonasi, ma’muriyat xonalari, yo’laklar, zinapoyalar, sanuzellar, terassalar va omborxonalar, rejalashtitilgan.

Texnik va iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Hududning umumiy maydoni - 17640 m2.

Qurilish maydoni – 882,0 m2.

Qurilish hajmi - 6470,0 m3.

Ko’kalamzorlashtirish maydoni – 3430,1 m2 (loyihada-135,1 m2 va mavjud -3295,0 m2).

Poydevorlar - lentasimon va ustunsimon, B20-betondan, himoyalash (gidroizolyatsiya) - 2 marta issiq bitum bilan qoplanadi.

Tayyorlash (podgotovka) - 100 mm qalinlikdagi B7,5-betondan.

To’sinlar - quyma temir-beton, 400x400 mm, B22,5-betondan.

Ustunlar - quyma temir-beton 400x400mm, B22,5-betondan.

Tashqi devorlari 200 mm qalinlikdagi gazobloklardan bo’lib, devor SG-1 to’rlari balandligi 675 mm qadam bilan mustahkamlanadi.

Pardevorlar – g’ishdan qalinligi 120 mm, 250 mm, gipsokarton qoplamali.

Orayopmalar - 1.141.1-40s seriyasiga muvofiq temir-beton plitalar.

Zinapoyalar quyma temir-beton, B15-betondan.

Qattiqlik diafragmalari - quyma temir-beton qalinligi 200 mm, B15-betondan.

Lift shaxtasi - quyma temir-beton 200 mm qalinlikdagi - B25-betondan.

Tom - metall konstruktsiyalar asosida, qalinligi 120 mm tom yopish sendvich paneli qoplanadi.

Oynalar - ikki qavatli plastikdan.

Kirish eshiklari - MDFdan.

Sokol – keromagranit qoplanadi.

Yo’nginga qarshi texnik yechimlar:

Loyihada bino-ishootlarga o’t o’chirish mashinalarining qattiq qoplamali yo’llardan kirish joyi mo’ljallangan.

Binoning yong’inga chidamliligi darajasi III.

Konstruktiv yong’in xavfi sinfi-CI.

Binolarning funktsional yong’in xavfi boyicha tasnifiga ko'ra, asosiy bino – F1, F3.

Loyiha buyurtmachining loyiha topshirig’i, arxitektura va qurilish qavat rejalari asosida yong’in signalizatsiyasi va yong’indan ogohlantirish tizimini nazarda tutadi.

Yong’in signalizatsiyasi yong'inni o’z vaqtida aniqlash uchun mo’ljallangan bo’lib, qabul qilish, nazorat qilish, qo’riqlash va yong’in signalizatsiyasi “Grand MAGISTR-12” qurilmasini binoning 1-qavatida o’rnatishni ta’minlaydi.

Qurilma 220V tarmoqdan quvvatlanadi. Quvvat tarmoqdan ta'minlanmaganda, qurilma avtomatik ravishda o'rnatilgan batareyadan quvvat oladi.

Yong’in signalizatsiya tarmog’i KSPV2x0,5 kabelidan qilinadi, yashirin shiftning orqasida gofrirovka quvurlarga yotqiziladi.

Yong’in signalizatsiyasi detektorlari sifatida quyidagi detektorlar: tutun detektorlari -SD-2003 va qo’lda boshqaruvchi detektorlar -IPR-1.

Favqulodda chiqishlar soni standartlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi hamda devor va shipni pardozlash yonmaydigan materiallardan tayyorlanadi. Loyiha odamlarni yong’in haqida ogohlantirishni nazarda tutadi.

Energiyasamaradorlik yechimlar.

Bino va inshootlaning energiyasamaradorligini oshirish maqsadida mazkur obyekt bo’yicha o’rab turgan konstruktsiyalarning issiqlik texnikasi hisob-kitobi ishlab chiqilgan va binoning “energetik pasporti” tuzilgan. Binoning devorlariga (tom qismiga) bazalt mineral jun plitalaridan himoya qoplami (izolyatsiya) qoplash, tom qismiga quyoshli suv isitish panellari o’rnatish rejalashtirilgan. Yoritish tizimi uchun zamonaviy energotejamkor diodli yoritish chiroqlaridan foydalaniladi.

Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Obyekt bo’yicha qurilish-montaj ishlarining yakuniy smeta xarajatlari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan “Toshkent shahar, Sergeli tumani, yangi Sergeli MFY, Sergeli 8-mavzesida Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish va malaka oshirish binosini qurish” ob’yekti ekspertiza ko’rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblanganda - 9 899 211,573 ming so’mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalanayotgan obyekt tasdiqlangan loyihalash topshirig’iga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, yong’in xavfsizligi tizimi, vedio kuzatuv tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari tizimi hamda havoni almashtirish va shamollatish tizimlari loyihada ko’zda tutilgan.

Elektrotexnika qismi (loyihaning umumiy tushuntirish xatiga asosan)**.**

Ushbu qism loyihaning arxitektura, qurilish, texnologik qismlari asosida amalga oshirildi.

Tarmoq kuchlanishi ~220/380 V

O'rnatilgan quvvat - 100,5 kVt

Hisoblangan quvvat - 77,0 kVt.

IP = 130.1A

Elektr ta’minoti II toifaga muvofiq amalga oshiriladi

Kirish moslamasi sifatida VRU1-21-10 UHL4, SHU-8253/1 kommutatorlari qabul qilingan.

Loyiha ishchi yoritishni nazarda tutadi. Chiroqlarni tanlash ularning tuzilish xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Yoritgichlar LED lampalar bilan qabul qilinadi. Umumiy va mahalliy yoritish ta’minlanadi.

Elektr yoritishni tarqatish tarmog’i binolarning xususiyatlari va maqsadiga muvofiq, gofrirovka quvurda yashirilgan VVGng kabeli yordamida amalga oshiriladi.

Loyiha TN-S to’proqlama (zazemleniya) tizimini ko’zda ttadi.

Barcha qurilish-montaj ishlari PUE, QMQ va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qoidalari va qoidalariga qat'iy muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Transformator nimstansiyasi (TP) buyurtma asosida zavoddan tayyor holda keltiriladi va loyihaga muvofiq poydevorga joylashtiriladi.

Issiqlik va shamollatish ta’minoti .

Hisoblangan tashqi havo harorati sovuq davr uchun -14°C qabul qilingan. Issiqlik ta’minoti manbai - joylardagi (shahar) issiqlik tarmoqlari. Isitish tizimi uchun – ko’rsatkichlari 90-70°S bo’lgan suv. Ikki quvurli gorizontal boshi berk isitish tizimi qabul qilingan. Bimetalik radiatorlar (H-500) isitish moslamalari sifatida ishlatiladi va quvurlar mustahkamlangan polipropilen (PN-20)dan. Havoni chiqazib tashlash tizim radiatorlarning yuqori nuqtalarida o’rnatilgan havo klapanlari orqali bajariladi.

Shamollatish mexanik havo haydovchi-tortuvchi bilan ta’minlash mo’ljallangan. Havoni boshqarish tizimi har bir qavat uchun alohida qabul qilinadi. Havoni boshqarish moslamalari mos keladigan qavatlarning shift konstruksiyasiga kanal tipida o’rnatiladi. Xonalarda qulay sharoitlar yaratish maqsadida ichki kassetali VRF konditsioner tizimlari o’rnatiladi.

Tashqi bloklar tomdagi (boyler) inshootga joylashtiriladi.

Barcha o'rnatish va sozlash ishlari QMQ 3.05.01-97 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Suv ta’minoti va oqava suv.

Binoning maishiy, ichimlik va yong’inga qarshi ehtiyojlar uchun suv ta’minoti Ø76 mm quvurlardan nasos stantsiyasi bilan loyihalashtirilgan. Sovuq suvni o’lchash moslamasi ko’zda tutilgan. Ichki yong’inni o’chirish uchun suv iste’moli 2,6 l/sek va tashqi yong’inni o’chirish uchun 10 l/sek. B1 va B2 kombinatsiyalangan tarmog’i Ø32-25 mm polietilen va Ø76-57mm po’lat quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv ta’minoti kirish tarmog’i (uzel vvod)dan loyihalashtirilgan. Oqava suv tarmoqqa Ø110-50 mm quvurlar bilan ulanadi.

Loyiha bosh reja va “O’zsuvta’minot” AJ ning texnik shartlari asosida bajarilishi lozim.

Videokuzatuv tizimi.

Videokuzatuv tizimi obyekt hududi va ichki hududlarini vizual kuzatish va favqulodda vaziyatlarni qayd etish uchun mo’ljallangan. Video qayd etish tizimi nazorat zonalaridagi ziddiyatli vaziyatlar to‘g‘risida video ma’lumotlarni uzatish imkoniyatini beradi.

Obyektga kirish joylarida va uning atrofidagi vaziyatni kuzatish uchun statsionar IP kameralar qo’llaniladi. Barcha ma’lumotlar direktor xonasiga o’rnatilagan videoregestratorga yig’ladi va boshqariladi.

Buyurtmachi tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256–son qarori talablariga rioya qilinsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 01.12.2022-yilda berilgan 60214-son xulosasi hamda eskiz ko’rinishi va bosh reja 25.11.2022-yilda 03-2 Bayon bilan kelishilgan. Hududiy yo’ng’inga qarshi nazorat va Hududiy sanitariya-epidemologiya xizmatlari bilan kelishilgan.

Davlat ekologiya ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali, Davlat ekologik ekspertizasining 2023-yil 8-sentyabrdagi 01-01/04-1814 xulosasi.

Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo’shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-sonli va 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarorlari talablariga amal qilsinlar. Obyekt bo’yicha tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo’yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga asosan loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, o’rnatilgan tartibda

kelishilsin.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **9 899 211 573** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **433 692 800** so'mga kamaytirilib, **9 465 518 773** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **7 092 612 712** so'm

Asbob-uskunalar: **1 358 743 335** so'm

QQS: **1 014 162 726** so'm

Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi va smeta xarajatlari ko’rib chiqildi.

Ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari ekspertizaga texnologik, arxitektura, qurilish va boshqa bo’limlar bo’yicha buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim etilgan.

Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi:

-ekspertiza tekshiruvi hamda ishchi loyihadagi qisman tuzatishlar bo’yicha smeta xarajatlarini joriy narxlarda qayta hisoblash natijasida 433 692,800 ming so’mga kamaytirilib, buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan 9 465 518,773 ming so’mni tashkil etadi;

-ishchi loyihaning dastlabki smeta xarajatlar hisob-kitobining o’zgarganligi resurs smeta me’yorlari hamda qurilish materiallarining narxilarni aniqlashtirish natijasida o’zgartirildi.

Import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog’liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o’tkazilmaydi.

Buyurtmachi obyekt bo’yicha o’rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to’g’risida”gi 684-sonli Qonun talablariga rioya etilsin.

Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli Farmonining tegishli bandlari talablari to’liq bajarilishini ta’minlasin.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bob, 29-bandiga muvofiq, ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga, yong’in xavfsizligiga hamda sohaning Idoraviy qurilish norma (IKN) talablariga rioya qilishi lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to’liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng, haqiqiy bajarilgan ishlar (ijro hujjatlari) natijalari asosida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qarorida belgilangan tartibga ko’ra “Nazorat o’lchovi” natijalari bo’yicha aniqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-sonli va 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qarorlarining tegishli bandlari bajarilsin.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil, 26-dekabrdagi “Elektr tarmog’i xo’jaligi obyektlarini muxofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 1050-sonli hamda 1998-yil 15-maydagi, 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va

inshootlarini qo’riqlash qoidalariga amal qilinsin.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-sonli qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang’ich qiymati Davlat statistika qo’mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo’yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o’rtacha narxlar hamda o’rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o’tkazish, resurslarning davriy o’rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O`zbekiston Respublikas Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-sonli va 256-sonli, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli qarorlar talablariga amal qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o’rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o’zgartirish talabi qo’yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to’liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

“Toshkent shahar, Sergeli tumani, yangi Sergeli MFY, Sergeli 8-mavzesida Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o’qitish va malaka oshirish binosini qurish” bo’yicha tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan qiymat miqdori, buyurtmachning boshqa xarajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblanganda 9 465 518,773 ming so’mni tashkil etadi, shu jumladan:

- qurilish materiallari uchun sarflanadigan xarajatlar - 3 513 106,921 ming so’mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug’urta to’lovlari xarajatlari - 2 403 088,796 ming so’mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 108 921,226 ming so’mni;
- jihozlar (texnologik vositalar) va mebel inventarlar xarajatlari - 1 358 743,335 ming so’mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%) - 1 040 537,696 ming so’mni;
- qurilish sug’urtasi xarajatlari (0,32%) - 26 958,073 ming so’mni;
- qo’shimcha qiymat solig’i (12%) - 1 014 162,726 ming so’mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o’rtasida shartnoma tuzishga asos bo’la olmaydi.

O’zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi 684-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022-yildagi 46-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, ob’yektning qiymati buyurtmachi tomonidan “Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qarorning 1-bob, 4-bo’limiga asosan- “Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo’yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari “Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi” DUKga texnik

topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritilishi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o’tkazilishi belgilangan.

Bosh ekspert: Kulmatov Raxim Abdimalikovich.
Ishtirokchi ekspertlar: Atabayev Daniyar Baxtiyarovich, Kurpelyanskaya Irina Borisovna, Nurmetov Timur Kurambayevich, Musayev Rustam Talatovich, Babayev Aloviddin Nizamudinovich, Adjigafarova Remziye Ablyayevna, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Alimova Lola Albertovna, Oqilxonov Jahongirxon Olimxon O‘g‘li